

ERKIN FIKR VA SHAXSIY POZITSIYANING JAMIYATDAGI O'RNI

Hikmatov Shaxzod Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Gulyamova Aziza Nigmatovna**

***Annotatsiya:** maqolada insonning shaxsiy fikrining jamiyatdagi o'rni, unga nisbatan bo'lgan munosabatlar, mustaqil tafakkur va erkin shaxs bo'lishning ahamiyati yoritiladi. Hayotiy kuzatuvlar, falsafiy mulohazalar va iqtiboslar orqali muallif o'z nuqtai nazarini boyitadi. Shu bilan birga, erkin fikrning mohiyati va uning jamiyatdagi qadriyatlar bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** shaxsiy fikr, erkin tafakkur, jamiyat, ijtimoiy bosim, mustaqil shaxsiyat, falsafa, zamonaviy tafakkur.*

МЕСТО СВОБОДНОЙ МЫСЛИ И ЛИЧНОЙ ПОЗИЦИИ В ОБЩЕСТВЕ

Хикматов Шахзод Бахтиёр угли

Студент Ташкентского государственного медицинского университета

Научный руководитель: **Гулямова Азиза Нигматовна**

***Аннотация:** в статье рассматривается роль личного мнения человека в обществе, отношение к нему, важность самостоятельного мышления и существования свободной личности. Автор обогащает свою точку зрения жизненными наблюдениями, философскими размышлениями и цитатами. При этом анализируется сущность свободомыслия и его связь с ценностями в обществе.*

***Ключевые слова:** личное мнение, свободная мысль, общество, социальное давление, независимая личность, философия, современная мысль.*

THE PLACE OF FREE THOUGHT AND PERSONAL POSITION IN SOCIETY

Hikmatov Shahzod Bakhtiyor ugli

Student of Tashkent State Medical University

Scientific supervisor: **Gulyamova Aziza Nigmatovna**

Abstract: *the article discusses the place of a person's personal opinion in society, attitudes towards it, the importance of independent thinking and being a free person. Through life observations, philosophical reflections and quotes, the author enriches his point of view. At the same time, the essence of free thought and its relationship with values in society are analyzed.*

Keywords: *personal opinion, free thinking, society, social pressure, independent personality, philosophy, modern thinking.*

Kirish. Inson jamiyatda yashar ekan, doimo o'z fikri, pozitsiyasi va qarashlari orqali o'z o'rnini belgilashga intiladi. Biroq ko'p hollarda bu fikrlar jamiyat tomonidan rad etiladi yoki befarqlik bilan qarshilanadi. Shaxsiy fikr erkinligi insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lishiga qaramay, ijtimoiy bosimlar natijasida ko'pincha o'z ifodasini topa olmaydi. Falsafa tarixida bu holat ko'plab mutafakkirlar tomonidan muhokama qilingan. Masalan, Fridrix Nyitshe insonni «ustun shaxs» bo'lishga da'vat etar ekan, aynan omma fikridan yiroq, o'z yo'lini tanlagan shaxsni nazarda tutadi [1].

Asosiy qism. Bu dunyoda bir haqiqat bor. Bu ham bo'lsa “Sening fikring boshqalarga kerak emas va bu narsa bilan hech kimni, hattoki gadoning ham ishi yo'q.” Unda nega shaxsiy fikr degan tushuncha bor? Bu shuni anglatadiki, sening

shaxsiy fikring oilang, farzandlaring, yaqin do'stlaring uchun ba'zi hollarda ahamiyatli bo'lishi mumkin. Lekin jamiyatda, siyosatda va hokimiyat boshqaruvida bu shunchaki oddiy hol. Bu esa odamning jahlini chiqaradi [14].

Fridrix Nyitshe fikricha, inson o'z hayotini ma'no bilan to'ldirish uchun ommaviy axloqdan voz kechib, o'z yo'lini tanlashi kerak. U shunday deydi: **“Erkakning katta fazilati uning o'z yo'lini topishidadir”** [1].

Shu jihatdan olganda, shaxsiy fikr egasi bo'lgan inson – bu yo'qotilgan emas, balki o'zligini topgan shaxsdir. Jamiyatga moslashgan odamlar ko'pincha zamonga mos keladigan fikrlar aytishadi, biroq bu doim haqiqatga mos bo'lavermaydi. [14]

Erich Fromm bu borada **“Inson ozodlikdan qo'rqadi, chunki u javobgarlikni o'z zimmasiga olishni istamaydi”** degan [2].

Shuning uchun ham aksar odamlar birovning fikriga ergashishni afzal ko'rishadi – bu qulay, lekin xavfli yo'ldir. Chunki bu yo'l erkinlik emas, qaramlik olib keladi. Shu bilan birga, jamiyatdagi har bir voqea yoki halokat, ba'zan boshqalarning imkoniyatlariga aylanishi mumkin. **“Bir kemada o'limini kutib yotgan qisqichbaqalar uchun Titanikning halokati bir mo'jiza edi. Kimningdir halokati boshqasining g'alabasidir.”**

Bu fikr, jamiyatda o'zgarishlar va shaxsiyatning o'z fikrini erkin ifodalashida yuzaga keladigan ijtimoiy bosimlarni tasvirlaydi. Kimningdir halokati boshqa bir kishining g'alabasiga aylanishi mumkin, va bu jarayon erkin fikrni izlagan shaxslar uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin. Insonning jamiyatdagi qadri ko'p hollarda uning tashqi ko'rinishi, moddiy holati yoki obro'siga qarab

belgilanadi. Ammo asl qadriyat insonning ichki dunyosida, uning fikrlash tarzida yotadi.

Al-G‘azzoliy **“Kimyoi saodat”** asarida bunday deydi: **“Insonning chin qiymati uning fikrlash doirasi bilan o‘lchanadi, molu dunyosi bilan emas”** [3].

Agar har bir narsaga e’tibor bersang, sen umringni yarmini birovlarining arzimas gaplarini muhokama qilish bilan o‘tkazib yuborasan. Va bu bilan kimning nima ishi bor? Ularga bu qiziq emas. Hayotda shunday odamlar bo‘ladiki, ular seni ortingdan ham, yuzingga ham gapirishadi. Bu esa jamiyatdagi **“ijtimoiy niqoblar”** muammosini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy rollar nazariyasiga ko‘ra, odamlar turli vaziyatlarda turli **“niqob”** taqib yashaydilar. Buni ijtimoiy psixologiya ham tasdiqlaydi. Kimdir seni yoqtirmasa, bu uning ichki kompleksi bo‘lishi mumkin. Chunki sen u bajara olmagan narsani bajarayapsan. Mustaqil fikrlovchi odamga jamiyatda qarshilik bo‘lishi tabiiy hol, chunki u odatiy qoliplarni buzadi.

Muhammad Iqbol bu holatni shunday ifodalaydi: **“Faqat mustaqil fikrlovchi odamgina jamiyatni uyg‘ota oladi, ergashuvchi emas”** [4].

Mustaqil fikr jamiyatga yangi g‘oyalar, o‘zgarishlar olib kiradi. Al-G‘azzoliy esa shaxs qadriyatini uning moddiy boyligi emas, balki tafakkur darajasi bilan o‘lchaydi: **“Insonning chin qiymati uning fikrlash doirasi bilan o‘lchanadi, molu dunyosi bilan emas”** [5].

Qur‘oni Karimda ham inson sinov orqali kamol topishi qayd etilgan. **Al-Ankabut** surasida Alloh deydi: **“Odamlar: “Iymon keltirdik”, deganlari bilan ularni sinovdan o‘tkazmasdan qo‘yilamiz, deb o‘ylayaptilarmi?”** (29:2) [6].

Bu oyat mustaqil pozitsiyaning sinovli yo‘l ekanini anglatadi. **Al-Hujurat** surasida esa shunday marhamat qilinadi: **“Ey mo‘minlar! Hech bir jamoa boshqa bir jamoani masxara qilmasin. Balki ular o‘zlaridan yaxshiroq bo‘lishi mumkin. Ayollar ham boshqa ayollarni kamsitmasin. Balki ular o‘zlaridan yaxshiroqdir...”**

“...Albatta, Alloh nazdida sizlarning eng yaxshilaringiz — bu eng taqvodorlaringizdir. Albatta, Alloh bilguvchi va xabardordir.” (49:11–13) [6].

Bu oyatlarda insonlarning farqli ekanligi ularning ustunligini emas, balki bir-birini tanish uchun yaratilganini bildiradi.

Shunday qilib, o‘z fikriga ega bo‘lgan inson bu yo‘lda ko‘plab muammolarga duch keladi: g‘iybatlar, yolg‘onlar, to‘siqlar. Ammo bu yo‘ldan qaytmaslik lozim. Chunki har qanday bosim vaqt bilan yemiriladi. Vaqt esa har qanday sinov va qiyinchiliklarga davodir.

Bu holatni aniqroq anglash uchun quyida shaxsiy fikrni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va O‘zbekiston misolida keltirilgan statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratamiz.

Shaxsiy fikrni rivojlantirish bo‘yicha jahon tajribasi

Hozirgi globallashuv va tez o‘zgaruvchan davrda insonning erkin va tanqidiy fikrlay olish qobiliyati nafaqat shaxsiy, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari ta’lim siyosatining markaziga aynan **shaxsiy fikrni rivojlantirishni** qo‘ygan. Ular bu orqali o‘quvchilarning faqat bilim emas, balki **mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal qilish, o‘z fikrini asoslab bera olish** kabi hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga erishmoqdalar.

OECD (2022) hisobotiga ko‘ra: Tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijodiy fikr yuritish – XXI asrda eng muhim 10 kompetensiyadan biri sifatida e’tirof etilgan [7].

Finlyandiya 95% o‘qituvchilar o‘quvchilarni darsda mustaqil fikr bildirishga undashini bildirgan [8].

AQSHda “Project-based learning” usuli orqali o‘quvchilarning 78% dan ortig‘i haftasiga kamida bir marta o‘z fikrini himoya qilishga undovchi topshiriqlarda qatnashadi [7].

Yaponiyada 9–11-sinflar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda 67% o‘quvchi “men darsda erkin savol bera olaman” deb javob bergan [9].

PISA (Programme for International Student Assessment) 2018 natijalariga ko‘ra: O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlovchi topshiriqlarda yuqori ball to‘plagan davlatlar: Singapur, Finlyandiya, Kanada, Yaponiya va Estoniya. Bu mamlakatlar ta’lim tizimida shaxsiy fikrni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi [13].

AQSH tajribasi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida bolalar maktabgacha yoshdan boshlab erkin fikrlashga o‘rgatiladi. Bu mamlakatda ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri — tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlar tahlili va ijodiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. O‘quvchilarga o‘z nuqtai nazarini bildirish, himoya qilish va bahs yuritish imkoniyati keng beriladi. Debatlar, rol o‘yinlar, loyiha asosidagi ta’lim (project-based learning) kabi interaktiv uslublar keng qo‘llaniladi. Bu usullar o‘quvchilarni faol fikrlashga, o‘z fikrini ifodalashga va boshqa qarashlarni hurmat qilishga o‘rgatadi [7].

Finlyandiya tajribasi. Finlyandiya ta'lim tizimi o'zining insonparvar va o'quvchi markazli yondashuvi bilan tanilgan. Bu mamlakatda o'quvchilarga **bosqichma-bosqich o'z fikrini mustaqil shakllantirish va uni asoslash** o'rgatiladi. Kitobxonlik madaniyati, yozma tahlillar, ochiq savollar orqali o'quvchilarning tafakkuri kengaytiriladi. O'qituvchilar darsda buyruq beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, suhbatdosh va yordamchi sifatida qatnashadi. Aynan shunday erkin va qulay muhitda o'quvchilarning fikri qadrlanadi va rivojlanadi [8].

Yaponiya tajribasi. Yaponiyada ko'proq jamoaviylik, intizom va tartib ustuvor bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim metodlari orqali yoshlarning **ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalari** rivojlantirilmoqda. O'quvchilarning tashabbus ko'rsatishi, innovatsion g'oyalar taklif etishi, muammolarga yangicha yondashuvi rag'batlantiriladi. Darslarda guruhli tahlil, muammoli topshiriqlar, eksperimentlar orqali o'quvchilarning shaxsiy yondashuvini kuchaytirish muhim deb topiladi. Shuningdek, baholash jarayonida faqat natijaga emas, balki fikr yuritish jarayoniga ham e'tibor qaratiladi [9].

O'zbekistonda shaxsiy fikrni rivojlantirish bo'yicha holat.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2023): Yangi kompetensiyaviy o'quv dasturlari asosida tayyorlangan darsliklar respublika miqyosida 70% maktablarga joriy etilgan [11].

“Yoshlar ovozi” loyihasi (2022): Respublikada 12 mingdan ortiq o'quvchi va talaba **debate, startap, va ijodiy tanlovlarda** qatnashgan. Bu esa yoshlar orasida shaxsiy fikr bildiruvchi platformalarga talab ortib borayotganini ko'rsatadi [12].

PISA tayyorgarligi doirasida milliy baholash (2021): 15 yoshli o'quvchilarning atigi 29% i "berilgan mavzuda o'z fikrini asoslab yoza oladi" degan natija qayd etgan. Bu raqam hali tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan ta'limning kuchli joriy etilmaganini ko'rsatadi [13].

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsiy fikrni rivojlantirish ta'limning ichki tamoyiliga aylangan. O'zbekistonda bu yo'lda jiddiy islohotlar boshlandi, biroq hali **amalda bu o'zgarishlarni to'liq tatbiq qilish uchun vaqt, resurs va metodik tayyorgarlik** talab etiladi. Ayniqsa, o'qituvchilarning yondashuvi va baholash tizimi tubdan o'zgarishi lozim.

Mavjud muammolar. O'zbekiston ta'lim tizimi mustaqillikning dastlabki yillarida hanuz sovet davridan qolgan ta'lim yondashuvlarining ta'sirida edi. Bu tizimda asosiy urg'u **axborotni yodlashga** qaratilgan bo'lib, o'quvchining erkin fikri va shaxsiy yondashuvi e'tibordan chetda qolgan. Ko'plab o'qituvchilar faqat "to'g'ri javob bitta bo'ladi" degan yondashuvda dars olib borishadi. Bunday sharoitda o'quvchilarda savol berish, shubha qilish yoki o'z fikrini bildirishga bo'lgan ishtiyoq susayadi.

Bundan tashqari, baholash tizimining test asosida bo'lishi ham tanqidiy fikrni cheklaydi. O'quvchilarning ko'pchilik hollarda "javobni topish"ga emas, balki "to'g'ri javobni yod olish"ga urinishi kuzatiladi. Bu esa mustaqil fikrlash madaniyatining shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Ijobiy o'zgarishlar. So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan Prezident Farmoni asosida umumta'lim tizimida **kompetensiyaviy yondashuv** joriy qilinmoqda. Endilikda o'quvchilarning shunchaki bilim olishigina emas, balki hayotiy

vaziyatlarda bilimdan foydalanish, o'z fikrini bildirish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishga aylangan [10].

Yangi avlod darsliklari ham bu yondashuvga mos ravishda ishlab chiqilmoqda. Ularda "Siz qanday fikrdasiz?", "Bu holatni siz qanday hal qilgan bo'lardingiz?" kabi savollar orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashga undovchi topshiriqlar ko'paygan. Ayniqsa, adabiyot, tarix, huquq, ona tili fanlarida shaxsiy fikrni ifodalashga oid mashqlar kengaymoqda.

Bundan tashqari, yoshlar o'rtasida **debat musobaqalari, startap tanlovlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, "Zakovat" intellektual o'yinlari** va ijodiy loyihalar soni ortib bormoqda. Bu tadbirlar yoshlarning fikr bildirishi, o'z nuqtai nazarini asoslab berishi, bahs madaniyatida ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratmoqda.

Xulosa. Inson hayoti davomida uchraydigan tashqi bosimlar, e'tiborsizliklar yoki g'iybatlar uni o'z yo'lidan chalg'itmasligi kerak. Har bir shaxs o'z fikriga ega bo'lishi, unga sodiq qolishi va o'zining shaxsiy taraqqiyoti yo'lida dadil harakat qilishi zarur. Erkin fikr va ichki ishonch insonni jamiyatda o'z o'rnini topishga olib keladi. Va nihoyat, vaqt barcha savollarga javob beruvchi vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nietzsche, F. (2008). Thus Spoke Zarathustra. Oxford University Press.

<https://global.oup.com/academic/product/thus-spoke-zarathustra-9780199537099>.

2. Fromm, E. (2001). The Fear of Freedom. Routledge.
<https://www.routledge.com/The-Fear-of-Freedom/Fromm/p/book/9780415253883>.
3. [3] Al-G‘azzoliy, A. H. M. (2003). Kimyoi saodat. Toshkent: Ma’naviyat. Elektron versiyasi (PDF, tarjimalari):
<https://archive.org/details/kimyoisaodat>.
4. [4] Iqbal, M. (2003). The Reconstruction of Religious Thought in Islam. Stanford University Press. <https://www.sup.org/books/title/?id=8896>.
5. Abdullayeva, M. (2018). Falsafa asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Bu asar ochiq elektron shaklda mavjud emas, ammo kutubxonalar orqali topish mumkin. O‘xshash elektron resurs:
https://n.ziyouz.com/books/falsafa/falsafa_asoslari.pdf.
6. Qur’oni Karim – Surah Al-Ankabut (29:2-3), Surah Al-Hujurat (49:11–13).
7. <https://quran.com/al-ankabut/2-3>.
8. <https://quran.com/al-hujurat/11-13>.
9. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/education/2030-project/>.
10. Finnish National Agency for Education. (2016). National Core Curriculum for Basic Education. <https://www.oph.fi/en/statistics-and-publications/publications/new-national-core-curriculum-basic-education>.
11. MEXT (Japan Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology). Education in Japan. <https://www.mext.go.jp/en/>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6108-sonli farmoni, 2020-yil 6-noyabr. “Ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
<https://lex.uz/docs/5062763>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2023). Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta’lim mazmuni haqida hisobot.
<https://uzedu.uz/>.

14. [12] Yoshlar ishlari agentligi (2023). Yoshlar ovozi forumi va loyihalari bo‘yicha rasmiy hisobot. <https://yoshlar.gov.uz>.

15. [13] PISA Uzbekistan – National Center for Educational Quality Assessment (2021). PISA tayyorgarligi doirasida milliy baholash natijalari.
<https://www.pisa.uz>.